

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**AL – XORAZMIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

**ALLANAZAROV TEMURBEK SHUXRATOVICH
O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA JISMONIY TARBIYA VA
SPORTNI RIVOJLANISHI**

**5112000-Jismoniy madaniyat bakalavr darajasini olish uchun
yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Masharipov A.



Urganch – 2016



MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. Masalaning adabiy manbalar bo'yicha holati.....	8
1.1. O'zbekistonda ikkinchi jaxon urishidan keyin jismoniy tarbiya va sport ishlarini qayta tiklanishi.....	8
1.2. O'zbekiston sportchilarini sobiq ittifoq spartakiadalaridagi ishtiroki.....	10
1.3. O'zbekistonda mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportni taraqqiyoti	14
1.4. Uzbekistonda mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportni taraqqiyoti.....	19
1.4 . “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi qonun va xukumat qarorlari.....	19
1.4.1.O'zbekistonda olimpiya xarakatini yanada rivojlanishi.....	21
1.4.2. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport harakatining tashkil etilishi.....	24
1.4.3.Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlanish istiqbollari.....	29
II bob.Tadqiqot vazifalari uslublari va tashkil etilishi.....	34
2.1.Tadqiqot vazifalari.....	34
2.2.Tadqiqot uslublari.....	34
2.2.1.Ilmiy-uslubiy adabiyot manbalarini tahlil qilish va umumlashtirish.....	34
2.2.2.Pedagogik kuzatuvlar.....	34
2.2.3. Pedagogik tajriba.....	35
2.2.4. Matematik statistik hisoblash metodi.....	35
2.3.Tadqiqotning o'tkazilishi.....	35
III bob.Pedagogik tadqiqot natijalari va ularning tahlili.....	36
3.1. O'zbekiston Respublikasida Jismoniy tarbiya va sport sohasida xukumat tadbirlari	36
3.2. O'zbekiston Respublikasida Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassis qadrlarni o'sishi	39
3.3.Sportni ommaviyligini va yutuqlarini o'sishi.....	41
Xulosa.....	46
Foydalanilgan adabiyotlar.....	47



KIRISH

O'zbekiston Respublikasining o'sib kelayotgan yosh avloddan jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari yetishtirish masalasini asosiy vazifalardan biri qilib qo'ygan. Jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, kasalliklarning oldini olish, axoli keng qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga jalb etish, mamlakatni tezda dunyoga mashxur qilish maqsadida Respublikamiz istiqloлга erishgan dastlabki yillardan boshlab jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid qator qonun va qarorlar e'lon qilindi. Jumladan, 2015 yil 4 sentyabirda O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" yangi tahrirdagi qonuni qabul qilinish etiborga molikdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi va doimiy rahnamoligida jismoniy tarbiya va sport borgan sari Davlat siyosatining ustivor yo'nalishlari doirasida rivoj topib bormoqda. «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonun hamda ushbu soha bo'yicha qabul qilingan va ayni kunda izchillik bilan hayotga tadbiq etilib kelinayotgan qator hukumat qarorlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ayniqsa, bu borada gimnastika turlarining rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilishi tahsinga sazovordir.

Jamiyat taraqqiyoti sari intilayotgan har bir davlat, eng avvalo, fuqarolari bo'lmish xalqning va ayniqsa o'sayotgan yosh avlodning barkamolligini eng katta boylik deb biladi hamda ularga xayotdagi barcha qulay bo'lgan sharoitlarni yaratishga xarakat qiladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi demokratik jamiyatni shakllantirish munosabati bilan bugungi kunda olib borilayotgan isloxotlar davomchilari kimlar bo'lishi jixatda muhim bo'lib qolmoqda.

Yuksak ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan barkamol shaxsni yetishtirish, milliy qadriyatlarni saqlab qolish, o'sib kelayotgan yosh avlod sog'ligini mustahkamlash va ijobiy hal qilish uchun xukumatimiz rahbarlari barcha imkoniyatlarni yaratmoqda.




Prezidentimiz I.A.Karimov «Sog`lom avlod uchun» ordenini topshirish marosimida so`zlagan nutqlarida alohida ta`kidlab o`tganlar: «Biz naslimizning kelajagi sog`lom avlod uchun kurash boshladik. SHu nom bilan orden ta`sis etdik va maxsus halqaro jamg`arma tuzdik. Bu bejiz emas, albatta. «Sog`lom avlod» deganda biz faqat jismonan baquvvat farzandlarimizni emas, balki ma`naviy boy avlodga ega bo`lgan xalqni tushunishimiz kerak. Bunday xalqni xech qachon hech kim yenga olmaydi. Buni hammamiz yaxshi anglab olmog`imiz shart».

Ma`lumki xozirgi kunda Respublikamizda aholining turmush farovonligini oshirish, sog`ligini mustahkamlash, jismoniy tarbiya va sportni aholi o`rtasida ommalashtirish, kelajagimiz bo`lmish yosh avlodni har tomonlama yetuk va jismonan barkamol qilib tarbiyalash bo`yicha juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday xayrli ishlar nafaqat mustaqil O`zbekistonimiz kelajagi uchun g`amho`rlik ko`rsatish, balki hozirgi murakkab sharoitlarning davr taqozosi hamdir.

Har qanday mamlakatning ertangi kuni, kelajak taraqqiyoti birinchi galda o`z xalqining, yoshlarining jismoniy va ma`naviy kamoloti bilan o`lchanadi. Hozirda davlatlar o`rtasidagi o`zaro musobaqa, kuch-qudratini namoyon etish bellashuvi, asosan ikki yo`nalishda – sport va jismoniy tarbiya hamda aql-zakovat, ya`ni intellektual faoliyat sohasida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy ta`bir bilan aytganda, xalqning jismoniy-intellektual salohiyatini ro`yobga chiqarish, bu borada tegishli zaxiralarni shakllantirish XXI asrda taraqqiyot va yuksalish kafolatiga aylanib bormoqda.

Bu haqiqatni chuqur va har tomonlama idrok etib, mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov mustaqillikka erishgan dastlabki kunlarimizdan boshlab yurtimizda sog`lom va barkamol avlod tarbiyasini davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo`nalishlaridan biriga aylantirish, bu borada o`ziga xos milliy tizim yaratish chora-tadbirlarini ko`rdi. Ana shu maqsadda istiqlolning dastlabki yilidayoq «Sog`lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg`armasi tashkil etildi, onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash, sog`lom bola, sog`lom nasl uchun kurash yo`lida salmoqli qadamlar qo`yildi. Birinchi davlat mukofotining «Sog`lom avlod uchun» ordeni deb atalgani bu boradagi intilishlar qanchalik qat`iy va uzoq maqsadlarni ko`zlaganidan dalolat edi.



Istiqlol o'zbek sportini dunyoga tanitdi. Bugungi kunda respublikamizda dzyudo, erkin , yunon-rum kurashi eng ommaviy sport turlari qatoriga kirib minglab yoshlar bu sport turilari bilan shug'ullanmoqdalar. Mustaqillik yillarida dunyoning turli mamlakatlarida o'tkazilgan jahon birinchiliklari, Olimpiya va Osiyo o'yinlari hamda boshqa ko'pdan-ko'p xalqaro musobaqalarda Artur Taymazov, Aleksandr Doktrashvili, K. Murodov, A. Muxtarov, A. Bogdasarov, F. To'raev. Abdulla Tangriev, Rishot Sobirov va boshqa ko'plab kurashchilar o'zbek xalqini butun dunyoga tanitdilar. Xorazm viloyatidan xam ko'plab yoshlar Osiyo birinchiligini g'oliblari va jaxon birinchiliklarini sovrindorlari bo'ldilar.

Ishning dolzarbligi: Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov «Tarixni bilmasdan turib kelajakni kurib bulmaydi» deb ta'kidlagan edi. Ma'lumki, bugungi kunda respublikamiz sportchilar mamlakatiga aylandi. Mamlakatimizda boshqa soxalar kabi jismoniy tarbiya va sport soxasida mislsiz muvaffakiyatlarga erishilmokda, Kuplab sportchilarimiz uzlarini galabalari bilan xalkimizni kuchini, irodasini, matonatini, ma'naviyatini butun dunyoga tanitmokdalar. Albatta, bunday muvaffakiyatlarga kiska muddatda erishilgani yuk. Xalkimiz azal-azaldan ardoklab kelayotgan milliy xalk uyinlari va sport an'analari, urf –odatlari, kolaversa, sobik shuolar davrida tamal toshlari qo'yilgan jismoniy tarbiya va sportni moddiy – texnika xamda ilmiy bazasi katta yordam berdi. XX asrning ikkinchi yarmida respublikamizda jismoniy tarbiya va sportning deyarli barcha soxasida, jumladan, mutaxassislar tayyorlash, moddiy baza yaratish, sport yutuklari, ilmning rivojlanishi, boshkaruv tizimida juda katta rivojlanishlar buldi. Kuplab oliy ukuv yurtlarida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlandi. 1955 yilda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutini ochilishi yetuk mutaxassislar va, ilmiy xodimlar (fan nomzodlari va fan doktorlari) tayyorlashda muxim urin egalladi. Bu davrlarda kuplab sportchilarimiz yevropa va jaxon chempionlari, Olimpiya uyinlarini golib va sovrindorlari buldilar.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin jismoniy tarbiya va sport soxasida juda katta isloxatlar olib borildi.



« Jismoniy tarbiya va sport tugrisida» konun (1992 y. 2000 y. 2015y) va ko'plab qarorlar qabul qilindi. Natijada jismoniy tarbiya va sport soxasining xukukiy asosi yaratildi. Futbol, tennis. kurash sport turlarini rivojlantirish uchun karorlarni kabul kilinishi bu sport turlarini jadal rivojlanishiga olib keldi. Ayniksa, XX asrning oxirida milliy kurashimizni xalkaro kurash turi makomini olishi xamda bokschilarimiz Muxammadkodid Abdullaev va Utkirbek Xaydarovlarning jaxon chempionlari bulishlari, Lina CHiryazova (fristayl), Armen Bagdasarov (dzyu-do), Karim Tulaganov (boks) larning kishgi va yozgi olimpiada uyinlarining golib va sovrindorlari bulishlari uzbek sporti tarixida uchmas izlar koldirdi. O'zbekistonda mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport soxsidagi rivojlanish boskichlarini ilmiy o'rganish va taxlil etish eng dolzabr muammolardan biridir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: O'zbekistonda mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlanishi bo'yicha mutaxassislar tomonidan o'rganilgan. Shunday bo'lsada mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportni sohalar bo'yicha ilmiy jihatdan kam tadqiq qilingan.

Tadqiqotning maqsadi: O'zbekistonda mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport soxasining rivojlanish jarayonini o'rganish va ilmiy-nazariy taxlil etish.

Tadqiqotning ob'ekti: XX asirning ikkinchi yarmida jismoniy tarbiya va sport soxasidagi tarixiy voqealar.

Tadqiqotning predmeti: XX asirning ikkinchi yarmida jismoniy tarbiya va sport soxasidagi ishlarning. mazmuni, shakli, vositalari, metodlari..

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: O'zbekistonda mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport soxasidagi ishlarning. mazmuni, shakli, vositalari chukur o'rganildi va ilmiy jihatdan taxlil qilindi, yutuqlari ochib berildi xamda uslubiy tavsiyalar ilmiy-nazariy jixatdan ishlandi.


Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati: - O'zbekistonda mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport soxasidagi ishlarning. mazmuni, shakli, vositalari, metodikasi ochib berildi va erishilgan yutuqlar xalqimizni ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy xayotidagi axamiyati ko'rsatib berildi. Bu o'quvchilarga O'zbekistonda



mustaqillik jismoniy tarbiya va sport soxasidagi amalga oshirilgan ishlarni o'rganish bo'yicha qo'llanma sifatda xizmat qiladi.

Tadqiqotning farazi. – O'zbekistonda mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport soxasidagi tarixiy voqealar ilmiy taxlil etiladi, yutuqlar sabablari o'rganiladi, tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va xajmi. BMI kirish uchta bob, xulosalar adabiyotlar ro'yxatidan iborat..



I BOB. Masalaning adabiy manbalar bo`yicha xolati

1.1.O'zbekistonda ikkinchi jaxon urushidan keyin jismoniy tarbiya va sport ishlarini qayta tiklanishi

O'zbekistonda ikkinchi jaxon urushidan keyingi yillarda jismoniy tarbiya va sport jamiyatlari tiklanib, ular o'z faoliyatlarini sportning ommaviyligini amalga oshirishga safarbar qildi.

1951-1956 yillarda sport jamiyatlarining birinchiliklari, tarmoq spartakiadalari va turli xil sport musobaqalarida sport jamiyatlarining tashkilotchilik ishlari sezila boshladi.


1951 yil Samarqand, Xo`jayli, Kosonsoy, Termiz va Angren shaharlarida jismoniy tarbiya pedagogika bilim yurtlari tashkil etildi. Ular boshlang`ich va yetti yillik (o`sha davrda) maktablar uchun jismoniy tarbiya o`qituvchilarini tayyorlashda yangidan ish boshladi.

1952 yil Toshkent DPI tarkibidagi (1949 y) jismoniy tarbiya fakulteti mustaqil bo`ldi. 1954 yil Farg`ona, 1956 yil Nukus DPIda ham jismoniy tarbiya fakultetlari ochildi.

1955 yil sentyabr-oktyabr oylarida O`zbek Davlat jismoniy tarbiya instituti tashkil etilib, iqtidorli sportchilarni talabalikka ilk bor qabul qildi.

1956 yil O`zbekiston sport tarixida salmoqli o`rinni egallaydi. YA'ni shu yili yozda "Paxtakor" sport majmui qurilib bitkazildi va unda O`zbekiston sportchilarining eng katta bayrami bo`lib o`tdi. Bu tantana 1956 yil Sobiq Ittifoq xalqlarining 1 spartakiadasiga ko`rik-sinov tajribasini o`tadi.

O`zbekiston jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda Respublika va viloyatlardagi "Dinamo", "Spartak", "Paxtakor", "Fan", "Alanga" (iskra) va boshqa sport jamiyatlari yangi usullar bilan faoliyat ko`rsatdi. Bunda yoshlarni sport unvonlari va darajalarini olishga bo`lgan qiziqishlar, yangi sport kiyimlari bilan ta'minlash, belgilar (emblema) bilan sport maydonlariga chiqishga havas uyg`otish ustuvor edi.




Sobiq Ittifoq davrida O`zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasida ulkan yutuqlarga erishildi. Sport jamiyatlarining markazlashgan rahbarlik faoliyatlari (1957, 1961) usullari birmuncha markazlashtirildi va takomillashtirildi. Sport bilan shug`ullanuvchilarning ko`payishi, kadrlar tayyorlashning yangi yo`llariga qo`yilishi, sport inshootlarining qurilish ko`lami oshishi ancha oshdi.

O`zbekiston sportchilari Ittifoq miqyosidagi yirik musobaqalarda yaxshi natijalarga erisha boshladi. Bir qator iste`dodli sportchilar Ittifoq terma jamoalar tarkibida jahon sport musobaqalari hamda Olimpiya o`yinlarida ishtirok etib, yuksak mukofotlarga sazovor bo`lishdi.

Opa-singil Tamara va Irina Presslar (engil atletika), V.Bondarenko (suzish), R.Sarkisovning gimnastika maktabi o`nlab iqtidorli sportchilarga (S.Diamidov, E.Sa`dii, T.Ibrohimov, E.G`iyosov va h.k) oq yo`l berdi. S.Babaning (suzish), R.Kazakov (kurash), S.Qurbonov (sambo), R.Risqiev (boks), A.YUdan (velosport), V.Ballad (balandlikka sakrash), R.Salimova (basketbol), V.Duyunova (voleybol), M.Ismoilov (ot sporti), S.Ro`ziev (qilichboz) kabilar Respublika shuhrati uchun kurashdilar.

Mamlakatda jismoniy tarbiya va sport ishlarini yanada ommalashtirishga qaratilgan qator qarorlar (1955, 1959) (MMT) majmuini yangi pog`onaga ko`tarish, aholining barcha tabaqalarini ommaviy sportga jalb etish va ayniqsa madaniy-sport majmuiy inshootlarini yangidan kurash, ularni yanada kengaytirishga qaratildi. Toshkentdagi “Traktor”, “To`qimachi”, “Temir yo`lchi”, “Start” (hozirgi O`zbekiston milliy banki) sport inshootlari va barcha viloyatlardagi sport inshootlari yangi talab asosida qayta ta`mirlandi.

Sovetlar mustamlakachiligiga xos ravishda O`zbekistonda jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish bo`yicha turli komissiyalar tashkil etila boshladi. Bunda Respublika partiya tashkilotining bosh rahbari SH.R.Rashidov ancha tashabbus ko`rsatdi. O`sha davrdagi asosiy rahbarlar sportning u yoki bu turiga mas`ul etib tayinlandi. Bu faoliyatlar viloyatlar va tuman-shaharlarda ham aynan shu maqsadda



tashkil etildi. Natijada viloyatlar va cho'l zonalaridagi xo'jaliklarda o'nlab stadionlar, suv havzalari, yuzlab futbol maydonlarining qurilishini ta'minladi.

1.2. O'zbekiston sportchilarini sobik Ittifoq spartakiadalari ishtiroki.


Urushdan keyingi qayta tiklash va tinch rivojlanish davrlarida Respublikada Spartakiadalarni o'tkazish izga tushdi. Bu asosan Sobiq Ittifoq Xalqlari Spartakiadalariga (1956,1959) tayyorgarlikning ko'rik-sinovi bo'ldi. O'quvchi-yoshlar, mehnatkash omma va qishloq mehnatkashlarining spartakiadalari zo'r tantanalar bilan o'tkazildi.

Eng avvalo e'tirof etish lozimki, o'sha davrlarning taniqli sportchilari va rahbar xodimlari O'zbekiston sportchilarining Sobiq Ittifoq xalqlari spartakiadalaridagi ishtiroki haqida maxsus qo'llanmalar yaratishgan. Ular orasida YU.S.SHolomiskiy, R.Ismoilov va K.P.Ten kabilarning ishlari e'tiborga loyiqdir. Ularning eng asosiy tomonlarini quyida bayon etildi.

Oradan 28 yil (1928) o'tgach, 1956 yil avgustida yana Sobiq Ittifoq xalqlarining 1 spartakiadasi bo'lib o'tdi. Unga tayyorgarlik uchun O'zbekiston IX-spartakiadasi tashkil etilib, saralab olingan sportchilar terma jamoalar tuzildi.

Spartakiadada ba'zi sportchilar yuqori natijalarga erishdi. A.Belskiy ot sportining ikki turida 1 o'rinni egalladi. V.Ballod balandlikka sakrash bo'yicha chempion unvoniga sazovor bo'ldi. Respublika sportchilari dasturdagi barcha sport turlari bo'yicha ishtirok etib, umumjamoa hisobida II o'rinni egalladi. Basketbol-erkaklar-14, ayollar-15, boks-15, erkin kurash-12, klassik kurash-10, veloshosse-8, suv polosi-10, voleybol erkaklar-14, ayollar-15, gimnastika-8, baydarka va kanoe haydash-16, suvga sakrash-8, merganlik-9, stendga otish-16, tennis-13, og'ir atletika-7, qilichbozlik-14, futbol-11, ot sporti-4, yengil atletika-9, suzish-9 o'rinlardan joy olgan edi.

II spartakiada 1959 yilda o'tkazilib, uning dasturiga 22 sport turi kiritilgan edi. Birinchi o'rinni Moskva, ikkinchi o'rin-Rossiya, uchinchi o'rinni-Leningrad egallagan. O'zbekiston esa 12-13 o'rinni egalladi. Spartakiadada R.Ablaev (67 kg) klassik



kurashda birinchi, YU.Zelenin (73 kg)-ikkinchi o`rinni egalladi. K.Vaynshteyn (boks,67kg) ikkinchi, A.Tanchiy (75 kg) to`rtinchi o`rinni egalladi. O.Ryaxovskiy (uch xatlab sakrash)-2 o`rin, V.Balod (balandlikka sakrash)-3 o`rin, I.CHuvmlin (langarda sakrash)-4 o`rinni, I.Abdullaev (erkin kurash, 52 kg)-3 o`rinni egalladi. Sport turlarida: basketbol-erkaklar-15, ayollar-13, boks-8, erkin kurash-10, klassik kurash-8, velosport-6, suv polosi-8, voleybol erkaklar-15, ayollar-11, gimnastika erkaklar-7, ayollar-7, baydarka va kanoe-13, ot sporti-12, yengil atletika-12, suzish-9, suvga sakrash-7-11 o`rinlar, zamonaviy besh kurash-13-17, merganlik-8, stendga otish-9, tennis-12, stol tennisi-13, og`ir atletika-8, qilichbozlik-13, shaxmat-12 o`rinda edi.

Sobiq Ittifoq xalqlarining III spartakiadasi 1963 yilda bo`lib o`tadi, bu musobaqalarga tayyorgarlik va sinov sifatida O`zbekiston XII spartakiadasi tashkil etildi. Uning barcha bosqichlarida 3 mln.200 ming kishi qatnashdi. 128 nafar sportchi sport ustasi unvoniga sazovor bo`lishdi.


IV Spartakiada 1967 yil avgustda tashkil etilib, sobiq ittifokning 50 yillik yubileyiga bag`ishlandi. O`zbekiston sportchilari 22 ta medallarni qo`lga kiritib 9-o`rinni egalladi.

V Spartakiada 1971 yilda bo`lib o`tadi. O`zbekiston avvalgi musobaqalarga nisbatan past darajada qatnashib, II-o`ringa erishdi.

VI Spartakiada 1975 yilda 17 shaharda o`tkazilib, 27 sport turi bo`yicha bahslar bo`lib o`tadi. Spartakiadaning asosiy shiori MMT (GTO) talablarini ommaviy ravishda bajarishga chaqirish bilan ko`rgazmali chiqishlar tashkil etildi. O`zbekiston terma jamoasi 9-o`rinni egallashdi.

1979 yil sobiq Ittifoq xalqlarining VII spartakiadasi Moskvada bo`ladigan XXII Olimpiya o`yinlariga tayyorgarlik va sinov edi. SHu sababdan barcha Ittifoqdosh respublikalar qatori o`zining XVIII spartakiadasini eng yuqori saviyada o`tkazdi. Uning tantanali ochilishi va yakunlariga bag`ishlab “Paxtakor” stadionida juda katta sport bayrami o`tkazildi.

VII spartakiada 1979 yilda o`tkazilib, u Moskvada bo`ladigan (1980) XXII Olimpiya o`yinlariga tayyorgarlik taraddudi bilan olib borildi. A.Qiyomov



spartakiadada bronza medaliga sazovor bo'ldi. CHim xokkey bahslarida “Andijanka” jamoasi Moskva viloyatining “Spartak” jamoasi bilan final uchrashuvlarda g'olib chiqib, chempion bo'lishdi. Jamoa tarkibida A.Kondratenko, R.Mustafaeva, G.Mamutova, X.Ismbaeva, M.Platonova, V.Zazdravnix, Z.CHausi, M.Haydarova, N.Gorbatkova, A.Xam, L.Ahmedova, F.Qodirova, E.Orifjonova, S.Rassolova kabilar o'ynadi.

Umumjamoalarning birinchiligida O'zbekiston 7-o'rinni (5307,4 ochko) egalladi.

VIII Spartakiada 1983 yil sport turlari bo'yicha Moskva, Toshkent, Olmaota, Tallin, Dnepropetrovsk, Vilnyus, Lvov, Kaunas, Ryazan, Tula va Ivanova shaharlarida o'tkazildi.


Spartakiadaning dasturi asosida ilk bor uch guruhga bo'lib tashkil etildi. Birinchi guruhda: Rossiya, Moskva, Leningrad, Ukraina, Belorussiya jamoalari edi. Ikkinchi guruhda: Qozog'iston, Gruziya, O'zbekiston, Litva, Latviya jamoalari bo'lib, ular orasida Qozog'iston g'olib chiqdi. Uchinchi guruhda: Armaniston, Ozarbayjon, Moldaviya, Estoniya, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston jamoalari o'zaro musobaqalashdi va Armaniston g'olib chiqdi.

IX Spartakiada 1987 yil 23 ta shaharda tashkil etilib, ular sportning 37 turi bo'yicha kurash olib borishdi. Rossiya sportning 17 turi (1-o'rin), Ukraina-12 tur (II) va Moskva shahri esa 7 tur bo'yicha (III) g'oliblikni qo'lga kiritdi. Leningrad, O'zbekiston, Ozarbayjon, Tojikiston va Turkmaniston sportchilari juda sust qatnashdi.

X Spartakiada (eng so'nggi) 1991 yil 6 iyulda Leningraddagi Olimpiya stadionida ochiladi. Bu spartakiada avvalgilaridan farqli o'laroq uch dasturdan iborat edi.

Birinchi dasturda voleybol, mini futbol, badminton, tennis, gorodki, tosh (gir) ko'tarish, yengil atletika, sportcha chamalash (orentirovanie), bilak kuchini sinash, shaxmat-shashka va bir qator boshqa turlar bo'yicha xohlagan kishi ishtirok etishi mumkin edi. Bu musobaqalar “O'zingni sina” (“Ispitay sebya”) shiori ostida o'tdi.

Ikkinchi dasturda “Xordiq chiqarish” (otda xayte), “Mashg'ul bo'ling” (razvlekaytes) shiori ostida musobaqalar bo'lib o'tadi. Bu asosan sportcha chiqish,



namoyish, maslahatlar berish (konsultasiya) va noan'anaviy mashg'ulotlarning 23 turidan (akrobatik roki-roll, sheyping, kikkoksing, taekvando, toshlarni (girlar) o'ynatish), atletik gimnastika, trial, lapta, motabol, aykido va h.k. musobaqalar ko'rsatuv-namoyish bo'lib o'tadi.


Uchinchi dasturda "Sevimli" (lyubopitno), "Qiziqarli" (interesno), "chorlovchi" (uvlekatelno) shiori ostida taniqli sportchilar, sport jurnalistlari, sport tashkilotlarining rahbarlari bilan uchrashuvlar, muloqotlar o'tkazildi.

Bu tadbirlar 6-13 iyulda stadionda xalq festivali shaklida o'tdi. Iqtisodiy va siyosiy tushkunliklar ta'sirida spartakiada ko'ngildagidek o'tmadi. Eng kuchli sportchilar bu tadbirlarda ishtirok etmadi. O'zbekiston sportchilari ham bu tadbirlarda ishtiyoqsizlik bilan qatnashdi.

Umuman olganda, O'zbekiston sportchilari har bir davrda o'zlarining spartakiadalarini, eng iqtidorli sportchilarni tanlab va tarbiyalab sobiq Ittifoq xalqlari spartakiadalariga (1963-1991) muntazam ravishda jiddiy tayyorgarliklar ko'rishgan. Bu yo'lda hukumat qarorlarini amalga oshirish bilan sport inshootlari kenggaytirildi. Mutaxassislar soni, sifati oshirildi. yetuk sportchilar respublika shuhrati uchun kurash olib bordi va o'z mahoratlarini namoyish etishdi. Minglab iste'dodli sportchilar va yetakchi murabbiylar kashf keldi. Ular keyingi davrlarda yoshlarga o'z tajribalarini singdirish bilan muvoffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Ta'kidlash lozimki, spartakiadalarining g'oliblari Olimpiya o'yinlarining ishtirokchisi yoki murabbiy sifatida keyingi boblarda alohida tilga olinadi.

E'tirof etish lozimki, O'zbekiston sportchilarining sobiq Ittifoq xalqlari spartakiadalari, ayniqsa Xalqaro sport musobaqalari, olimpiya o'yinlariga tayyorlashda mahoratli sportchilar va murabbiylarning xizmatlari g'oyat kattadir. O'zbekiston sport taraqqiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan murabbiylardan biri I.I.Chuvilin hisoblanadi. U 20 yil davomida respublika terma jamoasida ishtirok etib, langar cho'pda sakrash va o'ngkurashda respublikaning rekordchisi, bir necha bor chempioni bo'lgan. U 1968 yilda 18 marotaba chempion bo'lgan. I-II va III- sobiq ittifok xalqlari spartakiadasining sovrindori va sobik ittifok chempioni bo'lgan. Umrining so'nggi davrida Toshkent



Milisiya oliy maktabining katta o'qituvchisi va kafedra boshlig'i bo'lib ishlagan podpolkovnik unvoniga ega bo'lgan.

1.3. O'zbekiston sportchilariningsobik ittifok davrida xalqaro sport musobaqalaridagi ishtiroki va muvaffaqiyatlari.


Sobiq Ittifoq davrida O'zbekiston sportchilari sobik ittifok terma jamoalari tarkibida muvaffaqiyatli qatnashib, katta yutuqlarni qo'lga kiritishga musharraf bo'lishgan.

O'zbekistonda jismoniy madaniyat harakatini rivojlantirishda sport tashkilotlarining xalqaro aloqalari muhim ahamiyat kasb etish bilan birgalikda, ular tarixiy jarayon sifatida tilga olinmoqda.

Sportchilarning bu sohalardagi asosiy faoliyatlari haqida professor A.YArosiy va O'zR Davlat sport qo'mitasining mas'ul xodimi A.Poddubniy (1980 y), keyinchalik esa O'zR Milliy Olimpiya qo'mitasining prezidenti S.Ro'ziev, professor E.SHaternikov va MOQning bosh direktori I.Barabanlar (2001 y) tomonidan yaratilgan ommaviy va uslubiy qo'llanmalarda bayon etilgan.

O'zbekistonning xalqaro sport uchrashuvlarida qatnashishiga 1931 yil 4 oktyabrda futbolchilar, yengil atletikachilar, suzuvchilardan iborat Norvegiya ishchi-sport delegasiyasi bilan uchrashuvi natijasida asos solingan edi. Keyinchalik esa boshqa mamlakatlarning sportchilari bilan aloqalar bog'langan edi. lekin ikkinchi jahon urushi arafasidagi xalqaro vaziyatlarning keskin o'zgarishi va urushlar tufayli bunday faoliyatlar uzilib qoladi.

1948 yilda Respublika hukumati tomonidan "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport ishlarini yaxshilash choralari to'g'risida" qaror qabul qilinadi. Bunda Respublika sportchilarining xalqaro aloqalarini qayta tiklash masalalari ham qayd etildi. SHunga asosan sport aloqalari yana boshlanadi. Ulardan ba'zi bir e'tiborga loyiq



dalillarni eslash mumkin. YA'ni 1955 yilda "Paxtakor"chilar Xitoy xalq Respublikasi, 1960 yilda YAponiya futbolchilari bilan uchrashuvlar o'tkazdi. SHu yillari YAponiya, Finlyandiya, Koreya Xalq demokratik Respublikasi, V'etnam demokratik respublikasi va boshqa mamlakatlarning sportchilari yurtimizga tashrif buyurishgan edi. O'zbekiston sportchilaridan Ittifoq terma jamoalari tarkibiga jalb etila boshlandi. 1947 yil A.Kashaev yevropa va Finlyandiya birinchiligida qatnashib, ilk bor mamlakatimizga bronza medalini hadya etdi. 1950 yilda G.Gomarnik kurash bo'yicha jahon chempioni unvoniga sazovor bo'ldi. 1952 yil G.SHamray XV Olimpiya o'yinlarida ishtirok etib, sovrinli o'rinni (jamoada) egalladi. V.Ballad balandlikka sakrash bo'yicha XVI-XVII Olimpiya o'yinlarining qatnashchisidir.


1966-1970 yillarda O'zbekiston sportchilaridan 283 kishi chet mamlakatlardan sport musobaqalarida ishtirok etadi. O'z navbatida chet ellik sportchilarning 360 dan ortiq vakili O'zbekistonda bo'ladi.

Tokioda o'tkazilgan XVIII Olimpiya o'yinlarida 4 kishi, Monrealda (XXI Olimpiya o'yini) II kishi qatnashadi. Boks bo'yicha jahon chempioni R.Risqiev Olimpiadaning kumush medali, futbolchi V.Fedorov bronza medalini qo'lga kiritadi.

Keyingi yillarda respublika sportchilari yevropa va jahon chempionlari ro'yxatiga kiradi. Ulardan A.Alimov va ye.Kondratev (stendga otish), S.Qurbonov (sambo), R.Prokopenko (Salimova-basketbol), O.Rudenko (kamondan otish), K.Fatkuln (klassik kurash), M.Ismoilov (ot sporti), A.Abduraxmanov (klassik kurash) kabilarni ko'rsatish mumkin.

SHuningdek, S.Diamidov (gimnastika), M.Kolyushev (velotrek), R.Prokopenko (basketbol), R.Kazakov (klassik kurash), S.Xodiev (klassik kurash), S.Ro'ziev (qilichbozlik), S.Qurbonov (sambo) va boshqa jahon chempioni unvoniga sazovor bo'lishdi.

1965 yildan boshlab Respublika sportchilari Xindiston, Pokiston, Bangladesh, Birma, KXDR, Suriya, Keniya, Efiopiya, Marokash, Nigeriya, Senegal va boshqa mamlakatlarga borishdi.



1971 yil O`zbekiston yengil atletikachilari Tunisda bo`lib, yaxshi natijalarni namoyish etadi.

1976 yil voleybol bo`yicha Respublika jamoasi Afg`onistonda o`rtoqlik uchrashuvini o`tkazadi va sport mahoratlarini namoyish qiladi. SHuningdek basketbolchilar ham Birmada bo`lib (1975 yil) o`zlarining tajribalarini yuqori saviyaga ko`targan. Bokschilar, erkin kurashchilar Nigeriya va Qobulda uchrashuvlar o`tkazib kelgan. Har bir safardan keyin chet mamlakatlarning rahbarlari yurtimizga maktub yo`llab, yaxshi taassurotlar olganliklarini qayd qilish bilan birgalikda yana uchrashuvlar o`tkazishni taklif qilishgan.

Turkiya, Birma, Suriya Arab respublikasi va boshqa mamlakatlarning hukumat doiralari O`zbekiston bilan (sobik ittifok ruxsati orqali) turli shartnomalar tuzishadi. SHu asosda iqtidorli mutaxassislar SH.N.Zokirov (boks) bilan M.Muhitdinov (shaxmat) Afg`onistonda bo`lib, ularga murabbiylik va boshqa sohalar bo`yicha o`rgatib qaytadilar. Bu an`analar keyinchalik yana davom etadi. Z.G`.G`offorov (qilichbozlik, sport psixologiyasi) 1989-1991 yilda Aljirda, R.A.Akramov (futbol) 1991-1992 yilda Aljirda bo`lishdi.

SHuni ham ta`kidlash lozimki, 1966-1980 yillarda yevropa, Amerika va boshqa mintaqalarning alpinistlari Pomir, Hindiqush cho`qqilariga chiqish oldidan avval Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg`ona shaharlarida mehmon bo`lishgan. Ular O`zbekiston alpinistlariga o`z tajribalarini o`rgatganlar. Ular haqida V.Rasekning bir qator risolalari bag`ishlangan.

O`zbekiston sportchilari olimpiada o`yinlarida

1952. Xelsinki.


Galina SHamray (sport gimastikasi). Jamoada chempion. Jamoa musobaqalarida kumush medal.

Sergey Popov (engil atletika), qatnashchilar orasida 4-o`rin.

1956. Melburn.

Sergey Popov (engil atletika) - qatnashchi.

Valentina Ballod (balandlikka sakrash) – qatnashchi.



1960. Rim.

Valentina Ballod (engil atletika, balandlikka sakrash) – qatnashchi.

1964. Tokio

Sergey Diomidov (sport gimnastikasi). Jamoada ikkinchi o`rin.

Svetlana Babanina (suzish). Bronza medali.

Natalya Ustinova (suzish). Bronza medali.

1968. Mexiko.

Vera Duyunova voleybol. Birinchi o`rin.

Svetlana Babanina (suzish).

Sergey Konov (suzish).

Natalya Ustinova (suzish).

Mixail Kolyushev (velosport).

1972. Myunxen

Vera Duyunova (voleybol). Birinchi o`rin.

Rustam Kazakov (klassik kurash). Y Arim yengil vaznda chempion.

Elvira Saadi (sport gimnastikasi). Jamoada birinchi o`rin.

Nikolay Anfimov (boks) – 4 – o`rin.

Aleksandr YUdin (velosport).

Mamajon Ismoilov (otda uchkurash).

1976. Monreal.

Rufat Risqiev (boks) 75 kg. bo`lgan vaznda “Kumush” medal.

Vladimir Fedorov (futbol), uchinchi o`rin.

Sobir Ro`ziev (qilichbozlik, rapira).

Valeriy Dvoryanikov (otda uchkurash).


1980. Moskva.

Erkin SHagaev (suv polosi). Birinchi o`rin.

Larisa Pavlova (voleybol).

YUriy Kovshov (ot sporti). Jamoada birinchi o`rin, shaxsiy hisobda ikkinchi.

Olga Zubareva (qo`l to`pi). Birinchi o`rin.



Rustam Y Ambulatov (harakatlanayotgan nishonni ko`zlash). Ikkinchi o`rin.

Aleksandr Panfilov (velosport). Ikkinchi o`rin.

Sobir Ro`ziev (qilichbozlik, rapira). Jamoada ikkinchi o`rin.

Natalya Butozova (yoydozlik). Ikkinchi o`rin.

Leyla Axmerova, Valentina Zazdravnix, Nelli Gorbatkova, Alina Xam (chim xokkey).

Bronza medallar.

Tatyana Biryulina (engil atletika, nayza otish).

Aleksandr Xarlov (engil atletika).

Anatoliy Dimov (engil atletika).

1988. Seul.

Arsen Fadzaev (erkin kurash). 68 kg.gacha bo`lgan vaznda g`olib.

Maxarbek Xadarsev (erkin kurash). 90 kg.gacha bo`lgan vaznda g`olib.

Radion Gataulin (engil atletika, balandlikka sakrash). Kumush medal.

Noil Muxammadiyorov (og`ir atletika). Kumush medal.

Sergey Zabolotnov (suzish). Bronza medal.

Jamoliddin Abdujabborov (velosport).

Anatoliy Tankov (ot sporti).

Igor Davidov, Nikolay Sankoves (chim xokkey).

1992. Barselona.

Oksana CHusovitina (sport gimnastikasi). Jamoada chempion.

Rozaliya Galieva (sport gimnastikasi). Jamoada chempion.

Marina SHmonina (engil atletika). Jamoada g`olib.

Anatoliy Asraboev (miltiqdan o`q otish). Kumush medal.

Sergey Sirsov (og`ir atletika). Kumush medal.


Valeriy Zaxarevich (qilichbozlik). Jamoada uchinchi o`rin.

Ramil Ganiev (engil atletika, ko`p kurash).

Elena Svetensova (nayza uloqtirish).

Sergey Usov (engil atletika, 110 m.ga to`siqlararo yugurish).

Artur Grigoryan (boks).



Aleksandr Krosnoyasev (chim ustida xokkey).

Igor Mullajonov (chim ustida xokkey).

Aleksandr Domasheev (chim ustida xokkey).

Aleksandr Tyurin (eshkak eshish).

Igor Kireev (eshkak eshish).

Valeriy Zaysev (engil atletika).

Dmitriy Polyunin (engil atletika).

Ma'lumki sport turlari ichida erkaklar va ayollar sport gimanstikasi o'z mazmuni va murakkabligi hamda bajarilish shakllari bilan barchani o'ziga rom etadi. Bunda o'ta yuqori darajadagi texnik tayyorgarlik talab etiladi. SHu sababdan sportning bu turi bilan shug'ullanishga har kim ham jur'at qilavermaydi. SHunday bo'lsada E.Saadi, E.Xolmurodova, E.G'iyosov, T.Ibragimov, U.Niyozbekov, T.Karimov, S.Riomidov kabi o'nlab istedod egalari yetishib chiqqan.


1.4.Uzbekistonda mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportni taraqqiyoti

1.4.1.“Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi qonun va xukumat qarorlari

Sobiq Sovet hokimiyati yillarida jismoniy madaniyat va sportga e'tibor qanchalik ko'p bo'lmasin, bu sohaning maqomiy (status) tomondan qonuniy ravishda tegishli kafolatlar ishlab chiqilmagan. Faqat so'nggi (1990-1991 yillar boshida) yillarda maxsus qonun loyihalarini ishlab chiqishga kirishildi. Lekin u qog'ozda qolib ketdi.

O'zbekiston mustaqilligi tufayli boshqa sohalar kabi jismoniy madaniyat va sport sohasida birinchilardan bo'lib qonun loyihasini ishlab chiqdi va 1992 yil 14 yanvarda Respublika Oliy majlisining sessiyasida tasdiqlandi.

“Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi qonunda davlat va jamoat tashkilotlarining burchi, vazifalari va huquqlari alohida belgilab berildi. Qonunning 28 ta moddasida jismoniy madaniyat va sport harakati bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalar kafolatlandi.




Sport ishlariga rahbarlik, aholini jismoniy madaniyat va sportga jalb etish, o`quvchi-yoshlar, talabalar va mehnatkash ommasiga jismoniy madaniyat hamda sport bilan shug`ullanishga shart-sharoitlar yaratib berish alohida takidlandi.

Sport inshootlarini kengaytirish, ulardan maqsadli foydalanish, kadrlar tayyorlashni ilmiy-amaliy tajribalar asosida amalga oshirish, darsliklar va o`quv-uslubiy qo`llanmalarni yaratish borasida yangi yo`nalishlar ifoda etildi.

Nogironlar sportini rivojlantirish, jismoniy madaniyat va sportni moddiy-texnik jixatdan ta`minlash, o`z-o`zini boshqarish faoliyatlarini tashkil qilishga ham e`tibor qaratildi. Mustaqillikning yangi qirralari va o`tkazilgan tub islohotlarni natijalari asosida mazkur qonun 2000- yilda yangi taxrirda qabul qilindi. Bunda homiylik, jamg`arma uyushmalarini jismoniy madaniyat va sport sohasidagi vazifalariga keng yo`l berildi..

SHu bilan birga qonunda yana “Maktabgacha bolalar tarbiya muassasalari va o`quv yurtlari har yili kamida bir marta maktabgacha yoshdagi bolalarning hamda o`quvchi-yoshlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini ko`rikdan o`tkazadilar. Umumta`lim maktablarida, boshqa o`quv yurtlarida jismoniy tarbiya bo`yicha imtihonlar o`tkaziladi”,-deb ko`rsatilgan. Bu esa o`quvchi-yoshlarning salomatligini mustahkamlash, jismoniy kamolotini oshirish, ularni mehnat va mudofaa ishlariga layoqatli kishilar qilib yetishtirishga qaratilgandir. Bu imkoniyat va tadbirlarni har bir o`quvchi-yoshlar o`z tafakkurlari bilan tushunishlari, mustaqil O`zbekistonning istiqboliga hissa qo`shish uchun bor imkoniyatlarni ishga solib, o`z burchlarini ado qilishlari kerak. Ma`lumki, Respublika Oliy majlis sessiyasida “Ta`lim to`g`risida”gi qonun (1992 yil iyul, yangi taxrir 1997) qabul qilinib, unda ta`lim oluvchilarning salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlashni kafolatlovchi shart-sharoitlar yaratish, o`qish, mehnat qilish, dam olish uchun ta`lim muassasalari mas`uldir deyilgan. Bu ikki qonunning mazmun va mohiyati o`zaro mujassamlanib, jismoniy tarbiya va sportni (JT va S) rivojlantirishga qaratilgandir.




1.4.2.O`zbekistonda Olimpiya xarakatini yanada rivojlanishi

Xalqaro sport va Olimpiya harakatining keng rivojlanishi, qit'alarda turli xil sport musobaqalari, qit'a o'yinlarining o'tkazilishi, jahon chempionatlari va Olimpiya o'yinlarining an'anaviy tashkil etilishi har bir mamlakatda sport turlarini rivojlantirishni qadimdan taqazo etib kelgan.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida xalqaro sport hamjamiyatlariga a'zo bo'lib kirish maqsadida eng avvalo milliy Olimpiya qo'mitasini (MOQ) tashkil etadi. Bu 1992 yil 21 yanvardagi birinchi ta'sis majlisida amalga oshirildi. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (XOQ) xartiyasi asosida va jahon sport harakatining ilg'or tajribalariga tayanilgan holda MOQ Nizomi (ustavi) ishlab chiqildi. va qabul qilindi. O'zR MOQ Prezidenti etib O.Nazirov saylandi. U bir vaqtda Respublika Davlat sport qo'mitasining raisi ham edi. Bu XOQ Xartiyasi va O'zR MOQ Nizomiga to'g'ri kelmas edi. SHunday bo'lsada, Respublika sharoiti va moddiy-texnik hamda moliyaviy ta'minlashning ba'zi bir sabablariga ko'ra rahbarlik ishlari davom etdi. Avval MOQ viseprezidenti S.Ro'ziev keyinchalik (1994) MOQ prezidenti etib saylandi. Bu esa xartiya va Nizom talablariga to'la asoslandi. Nizomga ko'ra MOQ faoliyatini yurituvchi ijroqo'm, a'zolar, Olimpiya Akademiyasi va boshqa tuzilmalar tashkil etildi.

Respublika MOQ o'zining Assambleyalari, Kongresslari va boshqa rasmiy yig'ilishlarida eng muhim masalalarni muhokama qilmoqda. Bunda rejalarni tasdiqlash, ijrolar natijalarini eshitish, Xalqaro Olimpiya harakatida ishtirok etish, Olimpiya g'oyalarini keng yoyish va eng muhimi sportchilarni Osiyo, jahon chempionatlari, Xalqaro turnirlar va Olimpiya o'yinlariga tayyorlash bilan bog'liq masalalarni doimiy ravishda muhokama qilib, mutasaddi sport tashkilotlariga amaliy yordam bo'ldi.

O'zR MOQ Respublikaning xalqaro sport tashkilotlari bilan olib borayotgan o'zaro munosabatlari va aloqalarida Prezident I.A.Karimovning hissasi g'oyat kattadir. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining bosh shtabida Prezidentimizning oltin orden bilan mukofotlanishi, XOQ Prezidenti X.A. Samaranchning ikki marotaba yurtimizga tashrifi, (1991,1995) Arab mamlakatlari, Osiyo o'yinlari kengashining Prezidenti va YUNESKO



kabi Xalqaro nufuzdagi tashkilotlarning rahbarlari mas'ul xodimlari O'zbekistonga kelishlari muhim voqeliklar bo'ldi.

YUrtimizga qilgan tashrifida Xalqaro Olimpiya qo'mitasining Prezidenti Xuan Antonio Samaranchning taassurotlarini keltirish tarixiy jihatdan o'rinlidir, ya'ni u quyidagilarni mamnuniyat bilan izhor etgan:


“Men O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bilan uchrashuvimni zo'r qoniqish bilan eslayman.

Ana shu uchrashuv asnosida O'zbekistonda sportga qanday e'tibor berilayotganiga, mamlakat prezidenti sport harakatini qay darajada qo'llab-quvvatlashining shaxsan guvohi bo'ldim. SHu boisdan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining oltin ordeni unga munosib mukofot. SHu narsa menga ma'lumki, Prezident Islom Karimov xomiyligida O'zbekistonda yirik xalqaro turnirlar o'tkazilmoqda. Bu yerda Olimpiya jarayonlarida ishtirok etishga ham xayrixohlik kuchli”.

YUqoridagi tadbirlar asosida 1996 yil avgustda Toshkentda “Olimpiya shon-shuhrati” muzeyi ochildi. Unda mamlakatimiz sport tarixi, Olimpiya harakati, sportchilarning erishgan yutuqlari o'z ifodasini topdi. O'tgan davrlarda muzeyni tomosha qilish uchun Fransiya, Italiya, Germaniya, Angliya, SHvesiya, Rossiya, Bolgariya va juda ko'p yevropa, Osiyo, Afrika, Amerika, Avstraliya qit'alaridagi mamlakatlarning rasmiy kishilari, sayohatchilari va sportchilari kelib ketishdi.

Respublika Milliy Olimpiya qo'mitasi (MOQ) xodimlari, sport federasiyalarining rahbarlari, olimlar va boshqa rasmiy kishilar XOQ joylashgan Lozzana va juda ko'p mamlakatlarning MOQ xuzurida bo'lib, kongresslar, sessiyalar va ilmiy anjumanlarda ishtirok etmoqda.

Ayniqsa, o'zbek kurashini o'rganish va o'rgatish borasida Respublika murabbiylari Hindiston, janubiy Afrika Respublikasi, Avstraliya, Afrika, Amerika va yevropa qit'alariga borib kelishmoqda. O'z navbatida barcha qit'alardan rasmiy vakillar O'zbekistonda bo'lib, kurash va boshqa sport turlari bo'yicha tajribalar almashishmoqda. Bu esa sportchilarning xalqaro turnirlar, o'rtoqlik uchrashuvlar va boshqa musobaqalarni tashkil qilishga zamin tayyorlamoqda.




O`zR MOQ tarkibida Olimpiya Akademiyasi tashkil etilib, Olimpiya harakati g`oyalari, jismoniy tarbiya va sport nazariyasi hamda amaliyotini o`rganish va ularni targ`ibot qilishda xizmat qiladi.

Mazkur Olimpiya akademiyasi prezidenti A.Q.Hamroqulov va uning ijrochi direktori B.S.Rajabov (1993 yil 18 aprelda saylangan) va uning jamoatchi a`zolari yurtimizda Olimpiya harakatini rivojlantirishda katta mehnat qilishdi.

O`zR Milliy Olimpiya akademiyasining Nizomida qayd etilishicha olimpizim, Olimpiya harakati va olimpiya o`yinlarining insonparvar qadriyatlari tamoyillari va g`oyalarini o`rganish, tarqatish, ommalashtirish hamda keng miqyosda rivojlantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Uning muhim vazifasi esa, yurtimiz aholisini olimpiya ta`limoti va ilmiy-uslubiy asoslari bilan qurollantirish, mintaqaviy Olimpiya akademiyalari bilan aloqalar bog`lashdir.

E`tirof etish lozimki, mazkur olimpiya akademiyasining bevosita ishtiroki va amaliy yordamlari tufayli Olimpiya o`yinlariga (1996, 2000, 2004) tayyorgarlik, Xalqaro Olimpiya Qo`mitasining (1994) hamda Olimpiya o`yinlarining (1996) tashkil qilinishiga 100 yil to`lishi bilan o`tkazilgan ilmiy-nazariy anjumanlarni tashkil qildi. Olimpiya g`oyalarini keng yoyish maqsadida viloyatlarda va turli sport tashkilotlarida seminar-kengashlar, ma`ruzalar o`tkazildi. “Assalom Olimpiada” (Abdumalikov R, YUnusov T.T va b.q., 2002) kabi o`nlab ilmiy-ommabop hamda o`quv-uslubiy qo`llanmalar nashr etildi. Umumta`lim o`rta maktablarning “Jismoniy tarbiya” dasturi va bitiruvchilarning imtihon savollariga Olimpiya o`yinlari haqida ma`lumotlar kiritildi. O`rta maxsus o`quv yurtlari, akademik liseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy o`quv yurtlari o`quvchi yoshlari hamda talabalarining “Jismoniy tarbiya”dan hisob (zachet) topshirishlarida Olimpiya harakati bilan bog`liq mavzular mazmun topdi. Bunday ijtimoiy-tarbiyaviy va tarixiy jarayonlar Milliy Olimpiya akademiyasining sa`y-harakatlari natijalari desa bo`ladi.

Takidlash joizki O`zR MOQ jahondagi eng yirik mamlakatlar bilan sport sohasida mustahkam aloqalarni o`rnatgan. Ayniqsa AQSHda sportchilarimizning Olimpiya o`yinlarida (Atlanta-yozgi va Salt Leyk Sitti-qishki) ishtirok etishi hamda



professional boks bo'yicha M.Abdullaev, R.CHagaev va boshqalarning shu mamlakatda turib shug'ullanishlari, tajriba almashishlariga erishildi. O'z navbatida prezident kubogi uchun tennis va kurash bo'yicha xalqaro turnirlarda AQSH sportchilarining ishtirok etishi ham bunga shahodatdir.


1.4.3. Uzlusiz ta'lim tizimida ommaviy sport harakatining tashkil etilishi

Prezident Islom Karimov boshchiligida ishlab chiqilgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq ta'lim modeli asosida, o'quvchi-yoshlarning jismoniy tarbiya va sportga uzlusiz jalb qiladigan, umumta'lim maktablari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarining "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" ommaviy sport musobaqa-larini o'z ichiga olgan uch bo'g'inli yagona tizim tashkil qilindi (30-48 ilovalar) va amaliyotga joriy etildi).

Mamlakat aholisining barcha qatlamlarini jismoniy tarbiya va sportga jalb etish orqali sog'lom turmush tarzini ta'minlash, turli ijtimoiy illatlarning oldini olish maqsadida uch bo'g'inli yagona sport tizimi negizida ommaviy sport harakatining milliy modeli ilmiy asosda tuzildi.

Ommaviy sport harakati milliy modeli quyidagi tamoyillarga asoslandi:

- aholining barcha qatlamlarini kundalik sport harakatiga jalb etib, sog'lom turmush tarzini ta'minlash va millat genofondini sog'lomlashtirish;
- mamlakat aholisining yoshi, hayotiy ko'nikmasi, bilimi, ijtimoiy holati, imkoniyati, sharoiti, mustaqil harakat-lanishining inobatga olinganligi;
- model barcha bo'g'inlari uzviy va mantiqiy bog'langanligi;
- model har bir bo'g'inining funksional maqsadlarini aniq belgilash asosida ularning o'zaro harakat tizimlari ishlab chiqilganligi;
- modelda belgilangan funksional maqsad aholi o'rtasida sog'lom hayot tarzini ta'minlashning funksional maqsadiga ta'sir etishi va zanjirsimon siklga egaligi;




- modelning funksional maqsadi amalga oshishi bilan o`quvchi va talaba-yoshlar orasidan yuqori malakali, Vataniga mehr-muhabbati yuksak, o`z mamlakati obro`si uchun munosib kurasha oladigan iqtidorli sportchilar yetishib chiqishi.

Mazkur tizim 5 ta bo`g`indan tashkil topib, u maktab yoshigacha bo`lgan bolalarni, umumta`lim maktablari o`quvchilarini, o`rta maxsus kasb-hunar ta`limi tizimidagi yoshlarni, oliy ta`limdagi talabalarni hamda ishlab chiqarish sohasidagi va undan tashqaridagi barcha yoshdagi fuqarolarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport o`yinlariga jalb qilish, ularning sog`lomlik darajasini sport harakatlari orqali oshirishga qaratildi.

Birinchi blokning asosiy funksional maqsadi - maktab yoshigacha bo`lgan bolalarda birlamchi jismoniy harakat ko`nikmasini dastlab oila, bog`cha va mahallada shakllantirish; bolalarda har kuni sport bilan shug`ullanish ko`nikmasini xosil qilish, bu kerakli va qiziqarli vositani turli o`yinlar orqali joriy etish; bolalarni yoshiga va xohishiga mos ravishda faol harakatga keltira oladigan tizimning ilmiy va amaliy asosini mamlakat miqyosida yaratish va uni keng joriy qilishdan iborat.

Ikkinchi blokning funksional maqsadi - olti Milli-ondan ortiq umumiy o`rta ta`lim tizimi o`quvchilarining dastlabki jismoniy harakat ko`nikmalarini jismoniy tarbiya darslarida va musobaqalarida mustahkamlash hamda ularning sportga bo`lgan mehrini uyg`otish orqali jismoniy sog`lom ligini ta`minlash; "Umid nihollari" sport musobaqalari, maktab va maktabdan tashqari sport to`garaklari faoliyati orqali o`quvchilarning sport turlariga qiziqishini kuchaytirish; o`quvchilarning sport turlari bo`yicha qobiliyatlarini aniqlash, iqtidorli yoshlarni bolalar va o`smirlar sport maktabi, maxsus bolalar va o`smirlar sport maktablari va olimpiya zaxiralari sport kollejlariga yo`naltirish hamda bosqich musobaqalaridagi ishtirokini ta`minlash; jismoniy tarbiya va sportni maktab o`quvchilarining kundalik ehtiyojiga aylantirishdan iboratdir.


Uchinchi blokning funksional maqsadi - kasb-hunar ta`limi tizimidagi o`quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini namoyish etish; jismoniy tarbiya va sport kundalik ehtiyojiga aylangan o`quvchilarning "Barkamol avlod" sport musobaqalarida faol ishtirokini ta`minlash; sport bilan shug`ullanadigan, sog`lom turmush tarziga amal



qiladigan, ma'naviy va jismoniy yuksalishga intiladigan yoshlarni tarbiyalash, ular orasidan mamlakat terma jamoasi a'zolari va a'zolikka nomzodlarni yetishtirish.

To'rtinchi blokning funksional maqsadi - oliy ta'lim muassasalari talabalarining umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida sport turlaridan to'plagan tajriba va mahoratlarini "Universiada" sport musobaqalarida yanada faollashtirish; talabalarining jismo-niy va ma'naviy salomatligini mustahkamlash, ular orasidan yuqori malakali sportchilarni yetishtirishdan iborat.

Beshinchi blokning funksional maqsadi - ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sport harakatida toblanib, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohaga o'tgan mutaxassislarning sportga bo'lgan ehtiyojlarini sohalar bo'yicha sport musoba-qalari, oilaviy va boshqa o'yinlar orqali qondirish va jamiyatda sog'lom turmush darajasini mustahkamlash; sport-sog'lomlik harakatidan bosqichma-bosqich o'tib, sportni kunda-lik ehtiyojiga aylantirgan ota-onalarning o'z bolalarini jismoniy tarbiyaga jalb etib, ularda sportning birlamchi asoslarini shakllantirishdan iborat.



«Umid nihollari» sport musobaqalar bosqichlarini birinchi yil o`tkazish tartibi

1. Maktab bosqichi
2. Hudud bosqichi.
3. Tuman bosqichi
4. Viloyat bosqichi.
5. Mamlakat bosqichi.

Umid nixollari sport musobakalari kuyidagi davrlarda utkazildi:


- 1.2002 yil Fargana viloyati
- 2.2003 yil Xorazm viloyati
- 3.2006 yil Kashkadaryo viloyati
- 4.2009 yil Sirdaryo viloyati
- 5.2012 yil Navoiy viloyati
- 6.2015 yil Xorazm viloyatida utkaziladi
- 7.2018 yil

"Barkamol avlod" sport musobaqalari bosqichlari

1. Akademik lisey va kasb-hunar kollej bosqichi
2. Tuman bosqichi.
3. Viloyat bosqichi.
4. Mamlakat bosqichi.

"Barkamol avlod" sport musobakalari kuyidagi davrlarda utkazildi:

- 1 2001 yil Jizzax viloyati
- 2 2003 yil Andijon viloyati
3. 2005 yil Toshkent viloyati
4. 2008 yil Korakalpogiston res.
- 5 2011 yil Surxondaryo viloyati
- 6 2014 yil Namangan viloyati



«Universiada" sport musobaqalari


1. Oliy ta'lim muassasasi bosqichi
2. Viloyat bosqichi.
3. Mamlakat bosqichi

«Universiada" sport musobakalari kuyidagi davrlarda utkazildi:

- 1 2000 yil Namangan viloyati
- 2 2002 yil Buxoro viloyati
3. 2004 yil Samarkand viloyati
- 4 2007 yil Toshkent shaxri
- 5 2010 yil Andijon viloyati
- 6 2013 yil Buxoro viloyati
- 7 2016 yil Farg'ona viloyati

Uzluksiz ta'lim tizimini joriy etilishi mamlakatda ukuvchi –yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sport bilan shugullanishni ommaviyligini oshirdi, ular orasida soglom turmush tarzini shakllanishiga, bush vahtlarini mazmunli utkazishlariga asos buldi. Viloyatlar markazlarida va katta shaxarlarda zamonaviy, xalkaro andozalarga mos keladigan sport inshootlarini yaratilishiga olib keldi.

«Umid nixollar», «Barkamol avlod», «Universiada» musobakalarida toblangan sportchilar bugungi kunda Osiyo, jaxon birinchiliklarida va olimpiada uyinlarida kattadan-katta yutuklarni kulga kiritmokdalar. Saida Iskandarova,(suzish), Sevara Kadirova(stol tennis), Ibrohim Hamroqulov(shaxmat), Rishod Sabirov(dzyu-do), Abdulla Tangriev(Dzyu-do) va boshka kuplab sportchilarni misol keltirish mumkin.



1.4.4.Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlanish istiqbollari


Respublikaning iqtisodiy, siyosiy, tarixiy, madaniy va ijtimoiy salohiyotida jismoniy tarbiya va sport o`z o`rni hamda mavqeiga egadir. Bunda prezident I.A.Karimov va hukumatning faoliyatini alohida ta`kidlash lozim.

O`zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov mustaqillikka erishish va uning istiqbolida aholi salomatligining o`ta qimmatligi va unga ega erishish yo`llarini katta ko`tarinkilik bilan izhor qilib bergan. YA`ni: “Bizning ota-bobolarimiz kishilar bilan uchrashganda yoki xayrlashganda, avvalo, chin yurakdan salomatlik tilashgan. Bizning zamonamiz bahodirlar va himoyachilarimiz bo`lgan polvonlar va botirlarga boy va ularni mehr bilan parvarish qilib kelmoqda. Bugingi kunda hamma joyda sportning milliy turlari qayta tiklanmoqda. O`zining salomatligi haqida shaxsan g`amxo`rlik qilib borish madaniyatini yoshlikdan, maktab, mahalla, sog`liqni saqlash tizimi, jismoniy tarbiya va sportning ko`magida singdirish kerak”, - deb haqli ravishda aytgan.

O`quvchi-yoshlarning ta`lim olishlari va ularni doimo sog`lom bo`lishlari davlat qonunlari bilan muhofaza qilish, bo`lajak mutaxassislarning porloq kelajagini ta`minlash, deb talqin qilish lozim. SHu tufayli barcha o`quvchi-yoshlar qaerda ta`lim olmasin, ularga berilgan imtiyozlardan maqsad yo`lida foydalanish, jismoniy kamolotni ta`minlash zarur bo`ladi va bu bilan jismoniy tarbiyaning ijtimoiy va tarixiy mohiyatlarini yanada ko`targan, uni imkon boricha, inson hayotidagi yuksak olim ekanligini kelajakka meros qilib qoldirishga hayotiy tajriba va amaliyot asos bo`ladi.

SHu sababdan respublika sportining istiqbolidagi asosiy manba`larning holati va uni rivojlantirish omillaridan xabardor bo`lish muhim vazifalardan biri bo`lib hisoblanadi.

E`tirof etish lozimki, O`zbekiston mustaqilligining o`n yili davomida (1991-2010) jismoniy madaniyat va sport ishlari ancha rivoj topdi. Ommaviylikning asosidagi



sport mahoratlarni oshirish ancha yuqorilab ketdi. Futbol, tennis, o`zbek kurashi, boks, sharqona yakkakurashlar (karate, dyuzdo, toekvando, ushu, qo`l jangi va h.k) yoshlar orasida tobora ommalashdi. Buning eng asosiy sabablari shundaki, “Jismoniy tarbiya va sport to`g`risida”gi qonun hamda qator qarorlarni (1993,1996, 1999,2000, 2002, 2003, 2005 va h.k)amalga oshirishda katta tadbirlar amalga oshirildi. Ularning natijalari esa Respublikadagi o`tkazilayotgan sport musobaqalari, xalqaro turnirlar va sportchilarning Osiyo va jahon birinchiliklaridagi ishtirok etishi, erishilgan yutuqlar mazmunida namoyon bo`lmoqda.

O`zbekiston futbolini rivojlantirish (1993,1996), tennis, boks va kurash bo`yicha xalqaro turnirlar o`tkazish (1993.2000) haqidagi hukumat qarorlari muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, “O`zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi O`zVMning 1999 yil 27 maydagi qarori barcha davlat idoralari hamda nodavlat va jamoat tashkilotlari oldiga katta mas`ulyatlarni yukladi. SHu asosda aholining barcha tabaqalari va ishlab chiqarish, savdo, tijorat, tarbiya, o`quv muassasalari sohalarida jismoniy tarbiya va sporni keng yo`lga qo`yish masalalari jiddiy vazifa bo`lib qolmoqda.


Jismoniy tarbiya va sport taraqqiyotining 10 yillik davridagi ba`zi ko`rsatkichlarning natijalari bilan quyidagicha tanishish mumkin bo`ladi.

Jismoniy tarbiya jamoalarining soni 1991 yilda 14577 ta bo`lsa, 1995 yilda 14408 ta va 2000 yilda 15963 ta, 2010 yilda esa18256taga yetadi. Ba`zi yillarda jamoalar sonining kamayishiga sabab, ba`zi korxonalar va muassasalar birlashtirilgan yoki tugatilgan. Keyinchalik esa ularning soni osha boshlagan.

Jismoniy tarbiya va sport, sayohat hamda xalq o`yinlari bilan shug`ullanuvchilar soni 1991 yilda-5549966 nafar bo`lsa, 1995 yilda-5640085 va 2000 yilda-6862790 nafar , 2010 yilda 9652934nafarni tashkil etgan.

Bevosita sport turlari bilan shug`ullanuvchilar soni 1991 yilda-1491511, 1995 yilda-1256958 va 2000 yilda-1856186 kishiga yetadi.

Futbol bilan shug`ullanuvchilar soni -439344, voleybol-296801, yengil atletika-172047, kurash-93985, boks-26551, tennis-14504 kabilarni tashkil etmoqda.




Sport bilan shug`ullanuvchilar maktablarda 1992 yilda-737641, 1995 yil-828072, 2000 yilda-1196091 kishini, 2010 yilda-1865329 nafarni tashkil qildi. Bunday ko`rsatkichlar kollejlarda va liseylarda: 1992 yil-42027, 1995 yil-47353 va 2000 yil-8649 kishi, 2010 yilda 11653 kishi, oliy o`quv yurtlarida esa bunday natijalar ancha yuqori edi. Bolalar va o`smirlar sport maktablarida (BO`SM) shug`ullanuvchilar soni 1992 yilda-244483, 1995 yilda-245347 va 2000 yilda 272262, 2010 yil 325641 nafar yosh sportchilarni tashkil qildi.


Respublikada BO`SM soni 1992 yilda-472 ta, 1995 yilda-522 va 2000 yilda 538 ta, 2010 yilda 596 ga yetkazildi.

O`zbekiston uz mustakilligiga erishgandan keyin kuplab sportchilar sport orqali mamlakatimizni butun dunyaga tanitdilar, yurtimiz bayrog`ini baland ko`tarib, madhiyamizni jaranglatishga hissa qo`shdilar. Shu o`rinda jahon chempioni XXVII Olimpiya o`yinlarining boks bo`yicha oltin medal sohibi M.Abdullaev,

Ikki karra Osiyo va jahon chempioni, Osiyo o`yinlari g`olibi. “O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan sportchi”, “O`zbekiston iftixori” fahriy unvonlari, “O`zbekiston belgisi” ko`krak nishoni soxibi Ruslan CHagaev, boks bo`yicha ikki marta Osiyo chempioni, Osiyo o`yinlari g`olibi, Sidney Olimpiadasining bronza medali sovrindori. “O`zRda xizmat ko`rsatgan sportchi” Rustam Saidov, boks bo`yicha jahon chempioni. “O`zRda xizmat ko`rsatgan sportchi”, “O`zbekiston iftixori” O`tkirbek Xaydarov, boks bo`yicha Osiyo chempioni, Osiyo o`yinlarining kumush va bronza medallari sovrindori. Jahon chempionati va kubogi hamda yaxshi niyat o`yinlari bronza medallari sovrindori. “O`zRda xizmat ko`rsatgan sport ustasi”, “Do`stlik” ordeni, “O`zbekiston belgisi” ko`krak nishoni soxibi Dilshod yorbekov, boks bo`yicha «YAxshi niyat o`yin»lari g`olibi, jahon chempionati kumush medali sovrindori. Professional bokschilar o`rtasida 16 marta (2002) jahon chempioni. “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi. “O`zRda xizmat ko`rsatgan sportchi”, “O`zbekiston iftixori” faxriy unvonlari, “O`zbekiston belgisi” ko`krak nishoni soxibi Artur Grigoryan, futbol bo`yicha o`smirlar o`rtasida jahon va yevropa chempioni. XII Osiyo o`yinlari g`olibi Mirjalol Qosimov, sambo bo`yicha to`rt karra Osiyo chempioni. Jahon universiadasi g`olibi, jahon kubogi sohibi,




jahon chempioni. Milliy kurash bo'yicha jahon chempioni. "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni hamda "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishoni soxibi Akobir Qurbonov, milliy karate federatsiyasining Prezidenti. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustasi, Markaziy Osiyoda yagona 6-dan "Qora belbog'" sohibi Nurxon Nafasov, shaxmat bo'yicha Osiyo chempioni, jahon Olimpiadasida shaxsiy hisobda bronza medaliga sazovor bo'lgan. Xalqaro grossmeyster "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoniga hamda "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishoni soxibi Rustam Qosimjonov, shaxmat bo'yicha o'smirlar o'rtasida jahon va Osiyo chempioni. "Universiada-2000" musobaqasining g'olibi. Xalqaro miqyosdagi sport ustasi Ibrohim Hamroqulov, fristayl (chang'ida akrobatik sakrashlar) bo'yicha jahon chempioni, ikki karra jahon kubogi g'olibi, Lillehammer Olimpiadasi chempioni. "O'zRda xizmat ko'rsatgan sportchi", "O'zbekiston iftixori" faxriy unvonlarisoxibasi Lina CHeryazeva, tennis bo'yicha qizlar o'rtasida "Uimbldon" turniri va AQSH ochiq chempionati g'olibi. Osiyo chempioni. Butunjahon o'smirlar o'yinlarining bronza medali sovrindori. "O'zRda xizmat ko'rsatgan sportchi", "SHuhrat" medali sohibasi Iroda To'laganova, stol tennisi bo'yicha xalqaro musobaqalar g'olibi. Jahon o'yinlari (SHvesiya, 1999y) "Universiada-2000" musobaqalari g'olibi Sevara Qodirova, boks bo'yicha 1996 yil Olimpiada uyinlarini bronza medali sovrindori Karim To'laganov, boks bo'yicha to'rt karra respublika chempioni. Osiyo chempionatining kumush va bronza medallari sohibi, Osiyo o'yinlari bronza medali egasi, jahon kubogi g'olibi Jizzaxlik Lazizbek Zokirov, bokschi To'lqinboy Turg'unov (2 marta Osiyo o'yinlari, jahon kubogi va jahon chempionatining kumush medallari sovrindori); Tatyana Malinina (muzda nafis uchish, qishki Osiyo o'yinlarining oltin va kumush medallari sovrindori); Erkinboy Quttiboev (kikboksing bo'yicha yevropa chempioni, Muaytay bo'yicha uch karra jahon chempioni, Osiyo o'yinlari g'olibi); Timur Tulyakov (boks bo'yicha qit'a chempionati va Osiyo o'yinlari kumush medallari sohibi, YAxshi niyat o'yinlari g'olibi), sport gimnastikasi bo'yicha XXV Olimpiya chempioni, Osiyo o'yinlari va "Jahon yulduzlari" xalqaro musobaqalari sovrindori Oksana CHusovitina, dyuzdo bo'yicha XXVI Olimpiya o'yinlari kumush medali sovrindori, to'qqiz marta O'zrni chempioni,



Butunjahon Universiadasiining kumush medal sovrindori Armen Bagdasarov, milliy kurash bo'yicha Amir Temur va pahlavon Mahmud xotirasiga bag'ishlangan Xalqaro musobaqalarning mutloq g'olibi, jahon chempioni Bahrom Avazov, dyuzdo bo'yicha Osiyo o'yinlari bronza medali egasi, Milliy kurash bo'yicha birinchi jahon chempioni, Xalqaro miqyosdagi sport ustasi Kamol Murodov, sambo bo'yicha jahon va to'rt karra Osiyo chempioni, ikki marta jahon va qit'a kubogi sohibi, milliy kurash bo'yicha jahon chempionati bronza medali sohibi SHuhrat Xo'jaev, Surxondaryolik (1968 yilda tug'ilgan), kurash bo'yicha jahon chempioni. "El-yurt hurmati" ordeni sohibi Toshtemir Muhammadiev, kurash bo'yicha qator xalqaro turnirlar g'olibi, jahon chempioni "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoniga egasi Mahtumquli Mahmudov, shaxmat bo'yicha qizlar o'rtasida uch marta O'zbekiston birinchiligi g'olibi, Osiyo birinchiligining bronza medali sovrindori, jahon birinchiligining qatnashchisi YUlduz Hamroqulova, dyuzdo bo'yicha yoshlar orasida Osiyo birinchiligi g'olibi, Sidney Olimpiadasi qatnashchisi, Xalqaro miqyosdagi sport ustasi. Kurash bo'yicha-2002 yillarda o'tkazilgan Xalqaro turnirlar va jahon birinchiligining g'olibi Abdulla Tangriev, stol tennisi bo'yicha Butunjahon o'smirlar o'yinining bronza medali sovrindori, jahon o'yinlari va yevropa ochiq kubogi g'olibi. Xalqaro miqyosdagi sport ustasi Manzura Inoyatova,

Karate bo'yicha 1-dan sohibi. O'zbekistonning ikki marta chempioni, jahon kubogi g'olibi Nodir Xo'jaev, suzish bo'yicha ikki marta Markaziy Osiyo o'yinlari g'olibi, Osiyo-Okeaniya chempionatida oltin medal sohibi, Osiyo o'yinlarining kumush medali sovrindori, Sidney Olimpiadasi qatnashchisi. Xalqaro toifadagi sport ustasi Saida Iskandarova, stol tennisi bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi. Butun jahon o'smirlar o'yinining bronza medali sohibi, jahon o'yinlari g'olibi, ikki marta Respublika chempioni Saida Burxonxo'jaeva va boshka kuplab sportchilar yetishib chikdilar va O'zbekiston dovrugini butun dunyoga yoydilar.



II.BOB.TADQIQODNING VAZIFALARI, USLUBLARI VA TASHKIL ETILISHI

2.1.Tadqiqotning vazifasi:

- 1.Tadqiqot mavzusiga doir pedagogik va amaliy voqealar bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar va manbalarni o'rganish hamda mavzuning dolzarbligini ilmiy pedagogik jihatdan asoslash;
- 2.O'zbekistonda mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport soxasidagi tarixiy voqealarni chuqur o'rganish va tahlil qilish.
- 3.Jismoniy tarbiya va sport soxasidagi yutuqlarni xalqimizni ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy xayotidagi ahamiyatini ochib berish va ilmiy tadqiqot natijalariga asosan xulosalar qilish.


2.2. Tadqiqot ishining uslublari:

2.2.1. Ilmiy-uslubiy adabiyot manbalarini tahlil qilish va umumlashtirish.

Jismoniy tarbiya va sport soxasidagi tarixiy voqealarni o'rganish ko'plab olimlarning ilmiy risolalarida, darsliklarida, tadqiqotlarida keng taxlil qilindi. Jumladan Karimov I.A, Axmatov M.S, Axmedov B, Ismoilov R.I, SHolomiskiy YU.S., Kazieva R.A, Nasriddinov F.N., SHaternikov E.K., Toymurodov O.R., Usmonxo'jaev T.S., Xo'jaev F, Xoldarov T. YArashev K.D. YAroskiy A., Poddubniy V,P, YUnusov T.T ,Abdumalikov R, Stolbov V.V., Finogenova L.A., Milnikova N.YU., Botirov X.A. Nurmetov F.A.va boshqa soha olimlarning ishlari atroflicha o'rganildi. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari va sport murabbiylari, sport faxriylari bilan suxbatlar, savol-javoblar o'tkazildi,

2.2.2. Pedagogik kuzatish.

Pedagogik kuzatish va taxlil Toshkent shaxridagi «Olimpiya shon-shuxrat» muzeyida, UzDJTI qoshidagi laboratoriya markazida, Xorazm sport majmuasidagi «Jismoniy tarbiya va sport» muzeyida,Toshkent, Samarkand, Buxoro va Urganch shaxarlaridagi sport inshootlarida olib borildi.



2.2.3. Pedagogik tajriba.

Tadqiqot ishimizda asosan quyidagi soxalarning rivojlanishi o'rganildi:

- 1). O'zbekistonda Jismoniy tarbiya va sport soxasida xukumat tomonidan chikarilgan qarorlar ularning axamiyati.
- 2). O'zbekiston Respublikasida mutaxassis kadrlarni tayyorlannishi.
- 3). Sport ko'rsatkichlarini o'sishi (Olimpiada o'yinlari misolida).

Tadqiqot ishimizda o'rganilgan soxalar uch davr bilan qiyosiy taqqoslandi:

- 1- Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmi (Sobiq itifoq davri).
- 2- Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmi, Mustaqillik yillari.


2.2.4. Matematik statistik qayta hisoblash;

Tadqiqot ishimizning natijalari Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari matematik statistik qayta hisoblab chiqildi va taxlil etildi. Barcha hisob-kitob ishlarida «Windows-Excel» kompyuter dasturidan foydalanildi.

2.3. Tadqiqotning tashkil qilinishi va o'tkazilishi.

Tadqiqot ishimiz 2015-2016-o'quv yillarida olib borildi. Tadqiqot 2 bosqichda tashkil etilib, birinchi bosqichda tadqiqot ishimizga oid adbiyotlar manbalari o'rganildi va tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqichda tadqiqot natijalari tahlil etilib, taqqoslandi va umumlashtirildi hamda xulosalar qilindi.



III BOB. TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING TAHLILI

3.1. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sort soxasida xukumat qonin va qarorlari

Ma'lumki, mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni rivojlanishida davlat tomonidan chiqarilgan qonun va qarorlar juda muxim ijtimoiy – siyosiy ahamiyatga ega

XX asrning ikkinchi yarmi sobik ittifok davrida xukumat tomonidan quyidagi qarorlar qabul qilindi:

1959 yil mart- Jismoniy madaniyat harakatiga rahbarlik qilish to'grisida

1966 yil avgust- Mutaxassis kadrlar tayyorlash;

1968 yil oktyabr- Jismoniy madaniyat harakatiga rahbarlikni davlat hisobiga o'tkazish

1972 yil yanvar- Mehnat va mudofaaga tayyor (MMT-GTO) jismoniy madaniyat majmuasini ommalashtirish.


1981 yil sentyabr- Jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligini yanada rivojlantirish

1985 yil oktyabr- Jismoniy tarbiya va madaniy majmualarni (kompleks) tashkil qilish

O'zbekistonda mustakillik yillarida xukumat tomonidan quyidagi qonun va qarorlar qabul qilindi:

I.Oliy majlis tamonidan chiqarilgan qonunlar.

1. 1992 yil 14 Yanvar. "Jismoniy tarbiya va sport to'grisidagi qonun" qabul qilindi.
2. 2000 yil 25-26May. "Jismoniy tarbiya va sport to'grisidagi qonun"ning yangi takriri qabul qilindi.
3. 2015 yil 04 sentyabr. "Jismoniy tarbiya va sport to'grisidagi qonun"ning yangi takriri qabul qilindi.




II. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan chiqarilgan farmonlar.

1. 1999yil 1 Fefral. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro kurash assosiasiyasini qo`llab-quvvatlash to`g`risida” farmoni e`lon qilindi.
2. 2002 yil 24 Oktyabr O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg`armasini tuzish to`g`risida” farmoni e`lon qilindi.
3. 2004 yil 24 Avgust. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg`armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” farmoni e`lon qilindi.
- 4.

III. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Ma`kamasi tomonidan chiqarilgan qarorlar.

1. 1993 yil 18 Mart. “O`zbekistonda futbolni rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida” qarori qabul qilindi.
2. 1993 yil mart – Soglom avlod uchun ordenini ta`sis etish tugrisida
3. 1996 yil 17 Yanvar “O`zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” qarori qabul qilindi.
4. 1998 yil 11 Sentyabr. “O`zbekistonda tennis sportini rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida” qarori qabul qilindi.
5. 1999 yil 27 May. “O`zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida” qarori qabul qilindi.
6. 2000 yil 1 Yanvar. “Alpomish va Barchinoy” test talab me`yorlari tasdiqlandi.




Tadkikotlar shuni kursatdiki, sobik ittifok davrida XX-asrda 1929, 1936, 1945, 1948 yillarda xukumat qarorlari qabul qilingan.

Agar qiyoiy taqqolaydigan bo'lsak, XX – asrning birinchi yarmida 4-5 ta xukumat qarori qabul qilingan, XX-asrning ikkinchi yarmida sobik ittifok davrida 6 ta, mustakillik yillarida 2 marta konnun(1992, 2000) va 8 ta qaror qabul qilinda .

XX asrning ikkinchi yarmida chiqarilgan konun va qarorlarning qiyosiy tahlili

№	Davrlar	Jismoniy tarbiya sport tugrisida qonun	Jismoniy tarbiya sport tugrisida qaror va farmonlar
2	XX asrning ikkinchi yarmi (sobik ittifok davri)	-	6
3	Mustakillik yillarida	3	10 dan ortik

Kurinib turibdiki, XX-asrning ikkinchi yarmida xukumat tomonidan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish , uni tashkiliy asoslarini takomillashtirish, ommaviyligini oshirish, sportchilar tayyorlash saviyasini yaxshilash maksadida XX-asrning birinchi yarmiga nisbatan ko'p marotaba isloxatlar olib borilgan . Ayniksa, davlvtimiz o'z mustakilligiga erishgandan keyin qiska 10 yil ichida ko'plab qonun va qarorlar qabul qilindi. SHuni ta'kidlash lozimki, xukumat tomonidan jismoniy tarbiya va sport saxasida olib borilgan tadbirlar (qonun va qarorlar) soxani rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi.



3.2. O'zbekiton Respublikasida Jismoniy tarbiya va sport saxasida mutaxassis kadrlarni tayyorlashni usishi

Tadkikotda asosiy e'tibor oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashni yulga kuyilishiga karatildi, chunki, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda asosiy vazifani mutaxassis kadrlar bajaradi.


1949-1956 yillarda faqat Farg'ona, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi pedagogika institutlarida jismoniy tarbiya fakultetlari mavjud edi. 1964-1980 yil davrida Andijon, Samarqand (1957 y), Urganch (1967 y), Qarshi, Termiz, Jizzax (1976 y) va boshqa shaharlarda ham jismoniy tarbiya fakultetlari tashkil qilindi. Natijada Respublika bo'yicha har yili mingdan ortiq o'rta va oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar tayyorlashga erishildi.

Respublika "Spartak", "Mehnat", "Paxtakor", "Burevestnik" va boshqa sport jamiyatlarida jamoatchi jismoniy madaniyat va sport faollarini (murabbiy, yo'riqchi, hakam va boshqalar) tayyorlash yaxshi yo'lga qo'yildi. YA'ni o'quvchi-yoshlar, talabalar, mehnatkash omma orasida tashkilotchi faollar ko'paydi.

Deyarlik harbir viloyat markazida xalq ta'limi bo'limlari tarkibidagi malaka oshirish institutlarida jismoniy tarbiya bo'limlari tashkil qilinib, o'qituvchilar malakasini oshirishga katta e'tibor berildi.

O'zDJTI qoshida aspirantura (1962) tashkil etilib, jismoniy tarbiya va sportning anatomik, fiziologik yo'nalishlarida tadqiqotlar o'tkazish yo'lga qo'yildi. Professor A.N.YAroskiy boshchiligida maxsus labaratoriya tashkil etilib, iqtidorli yosh mutaxassislar jalb etildi. A.N.Liviskiy, YU.M.YUnusova va boshqalar bu sohada ilmiy ishlarini yakunladilar.

Markaziy shaharlarda (Moskva, Leningrad, Kinv va boshqa) aspiranturada o'qish va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashda salmoqli ishlar amalga oshirildi. 1964-1968 yil davrida M.U.Tojiev (akrobatika), SH.N.Zokirov (boks), YU.S.SHolomiskiy (tarix) kabi ilk qaldirg'ochlar yetishib chiqdi. Ularning izidan K.P.Ten, T.T. YUnusov, G.S.Sergeev, H.T.Rafiev, T.S.Usmonxo'jaev, A.Q.Ataev, SH.H.Xonkeldiev kabi o'nlab ijodkor yoshlar fan nomzodi nomiga sazovar bo'lishdi.




Sobiq sovet hokimiyatining so`nggi o`n yilligi ichida (1980-1991 y) mutaxassis kadrlar tayyorlash ancha ko`paydi. CHunki 1981 yil 11 sentyabrda xukumatni jismoniy tarbiya va sport ommaviyligini yanada oshirish to`g`risida qaror qabul qilinib, unda kadrlar tayyorlashga jiddiy e`tibor berish ifoda etilgan edi. SHu asosda O`zDJTI va viloyatlardagi jismoniy madaniyat fakultetlariga talabalarni qabul qilish 1-1.5 baravar oshirildi.

Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bir muncha yaxshi yo`lga qo`yildi. Nizomiy nomidagi Toshkent DPI (hozirgi universitet) ilmiy kengashida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi (pedagogika nazariyasi va tarixi yo`nalishi) dissertasiyalarni muhokama qilish, ilmiy unvonlar berish yo`lga qo`yildi. SHu sababdan R.Abdumalikov (1975), J.T.Toshpo`latov (1978), J.E.Eshnazarov (1978) kabi tajribali mutaxassislar va iqtidorli yoshlar fan nomzodi ilmiy darajalarini olishga muvoffaq bo`lishdi.

A.Q.Ataev (Buxoro DPI) 1984 yilda Kievda doktorlik dissertasiyasini yoqlab, respublikada yagona yetuk olim bo`ldi. XX oxirlariga kelib F.A. Kerimov, L.R. Ayrapetyanslar fan doktorlari, akademik buldilar. T.S.Usmonxo`jaev, SH.H.Xonkeldiev va boshkalar fan doktorlari buldilar,

Mutaxassis kadrlarni tayyorlashni qiyosiy taxlili

№	Davrlar	Urta maxsus ta`lim muassasalari	Oliy ta`lim muassasalari	Ilmiy kadrlar tayyorlash	
				fan nomzodlari	fan doktorlari
2	XX asrning ikkinchi yarmi (sobik ittifok davri)	8	12	18	3
3	Mustakillik yillarida	26	18	100 dan ortik	10 dan ortik




Jadvaldan kurinib turibdiki, 20- asrning ikkinchi yarmida mutaxassis kadrlar tayyorlash su'rati jadal usdi. Kadrlarni ilmiy saloxiyati oshdi. Bu mamlakatda jismoniy tarbiya va sport soxasini yanada rivojlanishiga olib keldi.

3.3.Sport ommaviyligini va yutuqlarini o'sishi (Olimpiya xarakatini rivojlanishi asosida).

Sobik ittifok davrida O'zbekistonda Olimpiya xarakatini rivojlanishi

Tarixdan ma'lumki, sobik ittifokda olimpiada xarakati ikkinchi jaxon urushidan keyin tashkil topdi . 1951 yilda Sobik ittifokda MOK tuzildi va XOKga a'zo bulib kirdi.1952 yil Xelsinkida bulib utgan XV yozgi olimpiada uyinlaridan boshlab sobik ttifok sportchilari olimpiada uyinlarida ishtirok eta boshladilar. Sobik ittifok davrida O'zbekistonlik sportchilar sobik ittifok jamoasi tarkibida olimpiada uyinlaida ishtirok etganlar. SHuning uchun respublikamiz sportchilariga olimpiada uyinlarida ishtirok etishlari uchun ittifok mikyosida utkaziladigan musobakalarda golib bulishlari lozim bulgan. Ayrim xollarda golib bulgan sportchilarimizni xam olimpiada uyinlarida ishtirok etishlariga yul kuyilmagan xolatlar xam bulgan. SHunga karamasdan kuplab sportchilarimiz olimpiada uyinlarida ishtirok etib golib va sovrindor bulganlar.




Sobiq ittifoq davrida O'zbekiston sportchilarini Olimpiya o'yinlaridagi natijalari.

No	Qatnashgan Olimpii adalar	Utkazilgan joyi	O'zbekistonlik sportchilar soni	Oltin medal	Kumush medal	Bronza medal
1	1952 y XV	Xelsinki	2	1		
2	1956 XVI	Melburn	2			
3	1960 XVII	Rim	1			
4	1964 XVIII	Tokio	3		1	2
5	1968 XIX	Mexiko	5	1		
6	1972 XX	Myunxen	6	3		
7	1976 XXI	Monreal	4		2	1
8	1980 XXII	Moskva	15	3	5	4
9	1988 XXIV	Seul	9	2	2	1
10	1992 XXV	Barselona	17	3	2	1
Jami 10 ta			64	13	12	9

Mustakillik yillarida O'zbekistonda Olimpiya xarakatini rivojlanishi

O'zbekiston Milliy Olimpiya ko'mitasi 1921 yil 21 yanvarda Toshkent shaxrida tashkil topgan. 1993-yil sentyabr oyida XOK ning 101 sessiyasida tasdiqlangan. MOK ning birinchi prezidenti etib Obid Nazirov saylandi. 1994 yilda O. Nazirov sog'hligi tufayli prezidentlik lavozimidan iste'foga chiqdi va qilichbozlik bo'yicha olimpiada o'yinlarini holi bi S.S. Ro'ziyev MOK prezidenti etib saylandi. Bugungi




kunda O`zbekiston MOK ning prezidenti lavozimida Rustam Qurbanov faoliyat olib bormoqda. 1996 yilda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovga xalqaro olimpiya karakatini kamda respublikada olimpiya karakatini rivojlantirishdagi katta xizmatlari uchun XOK ning “Olimpiya ordeni” bilan mukofotlandi. Bu nufuzli mukofotni I. A. Karimovga o`sha davrdagi XOK prezidenti markiz Xuan Antonio Samaranch Toshkent shaxrida topshirdi.

1996 yil 1 sentyabrda Toshkentda “Olimpiya shon-shuxrat” muzeyi ochildi. Muzeyni ochilish marosimida kam XOK prezidenti markiz Xuan Antonio Samaranch ishtirok etdi va yuqori bako berdi.


Mustakillik yillarida O`zbekiston sportchilarini Olimpiya o`yinlaridagi natijalari

№	Qatnashgan Olimpiadalar	O'tkazilgan joyi	O'zbekiston lik sportchilar soni	Oltin medal	Kumush Medal	Bronza medal
1	1994 XVII kishgi	Lillixammer	4	1		
2	1996 XXVI yozgi	Atlanta	77		1	1
3	1998 XVIII qishgi	Nagano	7			
4	2000 XXVII yozgi	Sidney	76	1	1	2
Jami			164	2	2	3




**Sobik ittifok davrida va mustakillik yillarida O'zbekistonda olimpiya
xarakatini rivojlanishidagi asosiy ko'rsatkichlar.**

№	Asosiy ko'rsatkichlar	Sobik ittifok davrida	Mustakillik yillarida	izox
O'zbekiston respublikasi bo'yicha				
1	Qatnashgan olimpiadalar soni (yozgi)	10	2	
2	Qatnashgan olimpiadalar soni (kishgi)	-	2	
3	Qatnashgan sportchilar soni	64 nafar	164 nafar	
4	Golib va sovrindorlar: -oltin medal -kumush medal -bronza medal	13(10 jamoada) 12(3 jamoada) 9(6 jamoada)	2 (shaxsiy) 2 (shaxsiy) 3 (shaxsiy)	
5	MOK	-	1992 yil 21 yanvarda tashkil topdi	Toshkent shaxrida
6	Olimpiada akademiyasi	-	1993 yil tshkil topdi	Toshkent shaxrida
7	Olimpiya «SHon-shuxrat muzeyi»	-	1996 yil 1-sentyabrda ochildi	Toshkent shaxrida
8	Olimpiya zaxiralari kollejlari	3	3	
9	Olimpiya zaxiralari oliy sport maxorat maktablari	7	10	
10	Olimpiya ordeni soxiblari	-	2	I.A. Karimov S.Ruziev
Xorazm viloyati bo'yicha				
1	Qatnashgan olimpiadalar soni (yozgi)	-	2	XXVI, XXVII.
	Qatnashgan sportchilar soni	-	2	T. Ibragimov A. Raximov




Sobik ittifok davrida o'zbekiston sportchilari jami bulib 10 ta yozgi olimpiada uyinlarida ishtirok etdilar va bu musobakalarda jami bulib 64 nafar sportchi katnashdi. Mustakillik yillarida esa O'zbekistonlik sportchilar 2 ta yozgi va 2 ta kishgi olimpiada uyinlarida ishtirok etib, jami 164 sportchi ishtirok etdi. Kurinib turibdiki, olimpiada uyinlarida katnashgan sportchilar soni 71.9 % ga oshgan. MOK ning tashkil etilishi mamlakatda Olimpiya xarakatini yanada rivojlanishga olib keldi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovga Olimpiya ordenini berilishi, XOK ning sobik Prezidenti Xuan Antonio Samaranchning yurtimizga tashrifi, Toshkentda «SHon-shuxrat» muzeyini ochilishi mamlakatimizda Olimpiya xarakatini rivojlanishiga xamda sportni rivojlanishiga ulkan xissa kushdi.



XULOSA

1. O'zbekistonda mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport soxasida tub burilishlar yasaldi Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport soxasi moddiy – texnika bazasi , ilmiy ta'minoti, xalqaro sport aloqalar rivojlandi.
2. Jismoniy tarbiya va sport soxasi bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash natijasida soxada olib borilayotgan ta'lim- tarbiya ishlari tubdan yaxshilandi.
3. O'zbekiston Respublikasi tomonidan jismoniy tarbiya va sport soxasiga oid qonun va qarorlar mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda asosiy omil bo'ldi.
4. O'zbekistonda mustaqillik yillarida ko'plab zamonaviy sport inshootlari barpo etildi va bu sportni ommaviyligini oshishiga xizmat qildi.
5. Mustakillik yillarida mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport davlat siyosatining va mafkurasining asosiy bo'giniga aylandi., bunda barkamol avlod tarbiyasining asosi etib jismoniy tarbiya va sport ekanligi kuzda tutildi.
6. O'zbekiston Respublikasida Olimpiya xarakatini rivojlanishi boshka mamlakatlar bilan sport aloqalarini mustaxkam rivojlanishiga sharoit yaratdi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.	I.A.Karimov. «Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish –eng oliy saodatdir». T.:2015 y.
2.	O'zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi” qonuni 04.09.2015 yil
3.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Xalq so'zi. 1999-yil 27- may.
4.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog'lom avlod uchun” ordenini ta'sis qilish to'g'risidagi Farmoni Turkiston 1993-yil 6- mart.
5.	O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni. Turkiston 1997- yil 1- oktabr.
6.	M Axmatov Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshkarish Toshkent 2004y.
7.	Abdumalikov R.Eshnazarov J. “Jismoniy madaniyat tarixi” T.1993 yil
8.	Yarashev “Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish” T.2002 yil
9.	Botirov X. “Jismoniy tarbiya va sport tarixi” T. 1993 yil
10.	Xo'jayev F. “O'zbekistonda jismoniy tarbiya” 1997 yil
11.	YArroskiy A., Poddubniy A., O'zbekistonning xalqaro sport aloqalari, T., “O'zbekiston”, 1980 yil.
12.	YUnusov T.T., Abdumalikov R., YArashev K.D., “Assalom Olimpiada”, T., O'zDJTI nashr. 1993 yil.
13.	Yarashev K.D. Abdumalikov R., Komilov X.K. “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlari majmuini ommalashtirish yo'llari, o'quv-uslubiy qo'llanma., T., O'zDJTI nashr 2002 yil.
14.	Yarashev.K.D., Ommaviy sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya va xalq milliy o'yinlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash masalalari, monog.T., O'zDJTI nashr., 1997 yil.
15.	Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining 100 yilligiga bag'ishlangan 1-Respublika ilmiy anjumani, ma'ruzalar to'plami.T., O'zDJTI nashr. 1994 yil.
16.	Sodikov A.T. I-IV sinf o'quvchilarning jismoniy tarbiya darslaridagi mashklar nagruzkasini me'yorlash. T. 1997-y. 154 b.
17.	Maxkamjanov K.M., Nasriddinov F.N. Maktabgacha va maktab yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini takomillashtirish. T. 1995-y. 74 b.
18.	R.Qudratov “Engil atletikaning maxsus mashqlari” T. 2011-y 36 b.
19.	Balsevich V.K. Fizicheskaya kultura dlya vsekh i kajdogo. FiS, 1988g. 24 s.
20.	www.Ziyonet.uz
21.	www.google.com
22.	www.Referat.uz